



MEN DINNIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI QANDAY TUSHUNAMAN

Ahmedova Sarvinoz

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejlfas-v03-i02-p1-22>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2023

Accepted: 19th February 2023

Online: 20th February 2023

KEY WORDS

Diniy ekstremizm, terrorizm, islom dini, Tolibon.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kunda dunyodagi global muammoga aylangan diniy ekstremistik va terroristik oqimlar va ularni kelajagimizga keltirayotgan natijalari haqida so'z yuritilib, ularni qanday bartaraf etish kabilar ochib beriladi.

Hozirgi kunda dunyodagi global muammoga aylangan masalalardan biri bu - turli diniy niqob qilib olgan terroristik oqimlar sanaladi.

Bilamizki, XXI asr texnologiya asri hisoblanadi. Biz istalagan axborotlarni topib, undan foydalanishimiz mumkin. Ammo shunisi borki, qidirilayotgan ma'lumotlar yomon axborot ham bo'lishi mumkin. Albatta, bunday ma'lumotlarni g'arazli niyatda bo'lgan shaxslar turli saytlarga joylashadi va insonni o'ziga jalb qiluvchi nomlari tarkibiga "Alloh" so'zini qo'shib, "Alohning quli" kabi nomlar ostida o'zlarining nopok ishlarini amalga oshiradilar. Ular diniy o'ziga niqob qilgan diniy ekstremistik oqimlardir.

O'zi diniy ekstremizm nima ?

Diniy ekstremizm — ba'zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati. Diniy ekstremizm ko'pchilik dinlarda mavjud bo'lib, uning tarafdorlari o'z oldiga siyosiy maqsadlarni qo'yadi.

Bunday tashkilotlar faqatgina turli dinlarni o'ziga niqob qilib oladilar. Shuning uchun ham bekorga diniy ekstremizm deyilmagan.

Bilamizki, din tushunchasi insonga ishonch tuyg'usini beradi. Shuning uchun ham insonni din orqali turli nomaqul ishlarga undash oson. Diniy ekstremizm oqim tashkilot rahbarlari shunday psixolog bo'lar ekanki, qanday qilib inson bunday oqimga kirib qolganligini o'zi bilmaydi. Bunday oqimlarni tarixiga nazar tashlasak, diniy ekstremizm va terrorchilik kabi hodisalar uzoq o'mishga borib taqaladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793–1794-yillarda Fransiya qo'llanilgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukmdorlar xalqqa nisbatan zulm qilganda unga qarshi kurashish ifodasida bo'lgan. Ammo bu paytlarda hozirgidek global muammoga aylanmagan edi. Hozir u dunyoning barcha mamlakatlariga birdek xavf solmoqda. Va bu tashkilotlar bir qancha davrlarni qamarab olib ularni siyosiy tang ahvolga solganlar. Bunday davlatlar sirasiga Sudan, Misr, Suriya, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Liviya, Pokiston kabi davlatlarda bu oqim tomir otib ketganligini guvohimiz. Va bu davlatlar qatorida hozirgi kunda dahshatli buzg'unchilik ishlari Suriya, Iroq



va Avg'oniston davlatlarida yuqori nuqtaga ko'tarildi. Buni kechagina bo'lib o'tgan Avg'onistondagi tolibonlarning harakatini ham ko'rishimiz mumkin.

Va Avg'onistondagi bo'layotgan ishlarga muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqida:

"Afg'oniston ichidagi siyosiy jarayonlarni boshlashni endi orqaga surib bo'lmaydi. Bu jarayonni cho'zish yana ko'plab begunoh odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi.

Tinchlik jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlash uchun afg'onistonliklarning o'zlariga tashabbus ko'rsatish, muzokaralar qanday formatda, qachon va qayerda olib borilishi bo'yicha tanlash imkonini berish kerak" - deydi.

Va bu harakat natijasida chegara turib qolgan xalqni och-nahor qolganligini guvohimiz.

Bundan tashqari bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga „Al-Qoida“, „Tolibon“, „ISHID“ „Vahobiylar“ va boshqa terroristik tashkilotlarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Ekstremizm va terrorizm odamlarning kelajagiga putur yetkazibhina qolmay, ertangi kuniga bo'lgan ishonchiga soya solib, davlatlarning o'zaro hamkorligiga va rivojiga to'siq bo'lmoqda.

Mutahasislarning xabar berishicha, dunyoda terroristik tashkilotlarning yuzdan ortig'i eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan va bu harakatlar o'zaro fikr almashib, zarur bo'lganda bir -birlariga yordam berar ekan.

Bunday oqimlar maqsadi nima? Nima sababdan bunda ishlarga qo'l urishadi?

Bu kabi savollar... Ular "O'rta Osiyoda xalifalik qurish sof islom dinini qaytarish " kabi maqsadlarni aytib inson ongini zaharlaydi.

Sof din degani o'zi nima? Sof din deganda ular nimani nazarda tutmoqda?

Ko'ryapmizki, bu oqimlar harakatlari orqali yuzlab, minglab insonlar hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'lmoqda, qo'shtirnoq ichida "shahid ketib jannatga kirishiga" ishontirib, o'z joniga qasd qilishga undamoqda. Ammo bizni dinimizda biror odam o'ldirish yoki o'z joniga qasd qilish og'ir gunoh sanaladi shunday emasmi?

O'rta Osiyoga islom dini VII asr o'rtalari VIII asrda kirib kela boshlagan. Islom dining muqaddas kitobi bu - Qur'oni karim nozil bo'ldi. Va bu kitob qiyomatgacha o'zgartirib bo'lmaydigan mukkamal qilib begilandi. Va shundan so'ng Imom Buxoriy, Termiziy kabi buyuk muhadis olimlarimiz timonidan bir qancha sahifalar kitob qilib jamlandi. Islom dini o'sha vaqtdan buyon bizning hududimizdagi milliy dinimiz sifatida tan olinib kelinmoqda. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarimiz o'z o'rnini topmoqda.

Ma'lumki, hech bir din buddaviylik yoki xristianlik dini insonlarni yomonlik qilishga, insonlarni o'ldirishga majbur qilmaydi. Shuningdek, islom dini ham bunday ishga undamasligiga shubxa yoq. Shunday ekan, ekstremizm va terrorchilik a'zolarining "din yo'lida shahid ketasan" deyishi asossiz.

Bundan tashqari, hozirgi kunda rivojlanib ketgan ijtimoiy tarmoqlar: Instagram, Telegram, YouTube, Tik Toklarda insonlarni dindan uzoqlashtirish maqsadida qilingan turli xildagi ishlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: Telegram kanallardagi yoki botlardagi kelgan xabarlar orasida soxta ma'lumotlarni ya'ni payg'ambarimizning nomini va uning qilgan ishlari haqida gapirib bolib, "agar shu xabarni yigirmata, o'tizta do'stingizga yuboring keyin tushingizda payg'ambarimizni ko'rasiz" deb yoki agar yubormasangiz boshingizga falokat



keladi degan mazmundagi xabarlarni uchramiz. Albatta, bu yolg'on ma'lumot ekanligiga ishonchimiz komil ammo bu kabi xabarlariga ishonib qolayotgan insonlar ham oramizda yoq emas. Xabarga ishonib ularning aytganini qilgan odamlar esa vaqt o'tgandan so'ng xabarda yozilgan mukofotga erishmagannidan keyin dinga bo'lgan ishonchi susayib boradi. Bu esa keyinchalik dindan chiqishga olib keladi.

Satistik ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda O'zbekistonda 35 milliondan ortiq aholi istiqomat qilmoqda va ularning orasida turli din vakillarini uchratishimiz mumkin. Ularning orasida 94 -95% islom dinida, qolgan 5-6% boshqa din vakillari hisoblanadi. Va bu din vakillari uchun bir qancha tashkilotlar ham ish olib bormoqda, bunday tashkilotlarning 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoii jamoalari, bittasi Budda ibodatxonasidir. Ushbu diniy tashkilotlarning erkin faoliyat olib borayotganligi yurtimizdagi diniy bag'rikenglikning hamda tinchlikning amaliy ifodasidir.

Ammo shu tinchlikning qadriga yetmay "islomiy davlat" tuzish niqobi ostida buzg'unchilik, zo'ravonlik ishlarini amalga oshirib kelayotgan jamoalar va guruxlarni ko'ramiz.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, qonli to'qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurbon bo'layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmay qo'ymaydi".

So'ngi yillarda tobora kuchaygan bu kabi ekstremistik va terroristik oqimlar xalqning ma'naviyatiga ta'sir etibgina qolmay, ularning dindan chiqish kabi holatlar ham uchramoqda.

Shu jumladan, turli hujralar tashkil etish yoki din ulamolari tomonida tasdiqlanmagan elektron kitoblarni tarqatish kabi nojo'ya ishlarini guvohimiz. Ayniqsa, internet tarmog'ri orqali ochiqdan- ochiq siyosat va targ'ibot ishlarini amalga oshirmoqda.

Yoqorida biz diniy ekstremizm va terrorchilik a'zolarini o'ta psixolog deb aytdik. Ular shunday insonlarni o'z domiga tortib oladiki, uni xatto o'zi bilmaydi. Ular birdaniga insonlarni zo'ravonlik qilishga undamaydi, buni asta- sekinlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshiradilar. Dastlab, insonni dinga bo'lgan ishonchini pasaytirib, o'z dinidan chiqishga undaydi. Bu esa insonni ma'naviyatini o'lishiga olib keladi. Ma'naviyatsiz insonni boshqarish esa oson.

Ko'ryapmizki, ular o'zlariga sodda qilib aytganda qul tayyorlanyapti, oddiy qul emas "manqurt qullarni" tayyorlanyapti.

Ma'lumki, manqurt deganda odamiyligini yoqotgan shaxs tushunilsa, qul deganda esa, hojasini so'zsiz buyrug'ini bajariuvchi shaxs tushuniladi.

Mana ulaning maqsadi nimada !

Ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi paytda shunday oqimlar tarkibiga kirib qolgan insonlarning ko'pchiligini voyaga yetmagan yoshlar tashkil qilmoqda.

Shu o'rinda bir savol tug'ilishi mumkin. Nega endi aynan voyaga yetmagan yoshlar?

Negaki, ular bu paytda hali yaxshi yomonni, oq-qorani to'raligicha anglamagan, qiziquvchan hamda kimdir yaxshi gapirsa u tomonga o'tib ketadigan davr bo'ladi. Bunday bo'lishiga sabab esa, bizlarning e'tiborsiz, loqayd bo'lganligimizdir.



Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "Dushmanlardan qoʻrqma – nari borsa, ular seni oʻldirishi mumkin. Doʻstlardan qoʻrqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qoʻrq – ular seni oʻldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar paydo boʻlaveradi" - degani bejiz emas.

Demak, bu kabi masalalarni oldini olish uchun har bir inson boʻlayotgan voqea-hodisalarga loqayd qaramasdan, hushyorlik va ogohlikni oʻziga kasb qilishi kerak.

Shuningdek, olloh insonlarga bergan tinchlik ne'matini qadriga yetib, uni asrab-avaylashimiz va vatanimizning mustaqiligi va rivojiga munosib oʻz hissamizni qoʻshishimiz darkor.

References

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.2008.
3. religions.uz